



## «KONSTITUTSIYA NORMALARINI HAYOTGA TADBIQ ETISH VA QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI» (SUD, HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR VA ADVOKATURA MISOLIDA)

**Abdurahmonov Toshmurod Dilmurodjon o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 2-o'quv kursi kursanti  
(Ilmiy rahbar: B.N.Rashidov, O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi  
Jinoyat protsessual huquqi kafedrasi boshlig'i, y.f.d, professor)

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10619166>

### ARTICLE INFO

Received: 26<sup>th</sup> January 2024  
Accepted: 04<sup>th</sup> February 2024  
Online: 05<sup>th</sup> February 2024

### KEY WORDS

Yangi konstitutsiya, huquqni qo'llash, inson huquqlari, shaxsiy va ijtimoiy huquqlar, unutilishga bo'lgan huquq, "miranda qoidasi", "xabeas korpus", qonun ustuvorligi, xalqaro huquq, sud-huquq tizimi, raqamlashtirish, integratsiya, raqamli texnologiyalar, "Elektron surishtiruv va dastlabki tergov" yagona axborot tizimi, "Yuridik yordam" elektron tizimi, "Elektron advokat orderi"..

### ABSTRACT

*Maqolada bugungi kunda mamlakatimizda konstitutsiya normalarini hayotga tadbqiq etish va qonun ustuvorligini ta'minlashda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni qo'llash, ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida raqamli texnologiyalarning keng joriy etish, oldinda turgan vazifalar, sohadagi muammolar va ularning yechimlari ilmiy-amaliy tahlil qilingan.*

Hozirgi davrda raqamli texnologiyalar ijtimoiy hayotimizning har bir jabhasiga kirib kelmoqda. Hech bir sohani bugungi globallashuv jarayonida ushbu texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Dunyoning ko'plab davlatlari o'zlarining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ekologik, tashkiliy-boshqaruv va boshqa funksiyalarini amalga oshirishida bevosita raqamli texnologiyalar katta o'rin egallaydi. Ayniqsa, Sun'iy intellekt texnologiyalarining jadallik bilan rivojlanib borishi ushbu qamrovni yanada oshirish imkoniyatini yaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasi bugungi rivojlanishning yangi bosqichiga qadam qo'yar ekan, davlat boshqaruvida qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini kafolatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirib bormoqda. Jumladan, jamiyatimizdagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar yangi ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelishi, ushbu munosabatlarni har tomonlama tahlil qilish va yechim topish jarayoni ko'plab mamlakatlarda bo'lganidek mamlakatimizda ham keng qamrovli konstitutsiyaviy islohotlar o'tkazilishiga turtki bo'ldi. Ushbu islohotlarning mahsuli o'laroq O'zbekiston xalqining umumiy referendum natijasida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi. Hozirgi vaqtga



kelib, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan adolatli va xalqparvar davlat barpo etish yo'lida dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni to'laqonli amalga oshirish, yangi mustahkam konstitutsiyaviy makonni shakllantirish davlatimizning eng asosiy maqsadi sifatida o'rta chiqmoqda. Shu sababli ham Yangi tahrirda O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasini qabul qilish jarayonida bugungi kundagi yetakchi xorijiy mamlakatlar jumladan Fransiya, Ispaniya, Germaniya, Sloveniya, Serbiya, Polsha, AQSh, Bolgariya, Gruziya, Turkiya, Yaponiya kabi davlatlar konstitutsiyalari chuqur o'rganildi va tahlil qilindi. Aholida kelgan qariyb 222 715 ta takliflar ko'rib chiqildi.

Yangi tahrirdagi konstitutsiyamizda davlat faoliyatini qonun ustuvorligi asosida amalga oshirilishini ta'minlash uchun Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga egaligi, uning to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi hamda inson huquq va erkinliklari xalqaro huquq va konstitutsiya normalariga muvofiq kafolatlanishi belgilandi. Ayniqsa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ijtimoiy davlat prinsiplariga oid normalarning yanada mustahkamlanishi, xususan, sifatli ta'lim va tibbiy xizmat ko'rsatish, ijtimoiy ehtiyojmand qatlamni qo'llab quvvatlash, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi tizimini yaratish, ishsizlikdan himoyalani, uy-joyga ega bo'lishga normalar bilan yanada takomillashtirilganligi alohida e'tiborga loyiq masala. Jumladan, asosiy qonunimizda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy majburiyati sifatida belgilandi. Ushbu norma bilan inson huquq va erkinliklari qonunlar, davlat organlari va ular mansabdor shaxslari faoliyatining mazmun-mohiyatini belgilashi mustahkamlandi. Konstitutsiyada insonning shaxsiy huquqlari va erkinliklari kafolati eng ilg'or xalqaro standartlarga muvofiq kuchaytirildi.

Xususan, shaxsni sud qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligi, ushbu muddat ushlab turish qonuniyligi va asosligi suda isbotlanmasa, shaxs darhol ozod qilinishi ("Xabeas korpus" instituti) hamda shaxsni ushlab turish chog'ida uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari unga tushunarli tilda tushuntirilishi kerakligi ("Miranda qoidasi"), shuningdek, ayblanuvchi va sudlanuvchilarga o'ziga qarshi ko'rsatma bermaslik, ya'ni "sukut saqlash" huquqi konstitutsiyaviy norma sifatida belgilandi. Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida belgilanishi, erkin bozor mexanizmlarini joriy qilish, sog'lom raqobat va xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq yangi normalar ham yangi tahrirdagi asosiy qonunimizdagi asosiy o'zgarishlardan biri bo'ldi.<sup>1</sup>

Albatta yuqoridagilardan ko'rinib turibdi-ki amalga oshirilgan islohotlar natijasida inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning yangi mexanizmlari yaratildi mavjudlari esa mustahkamlandi. Ushbu jarayonlarda Konstitutsiya normalarini hayotga tadbiiq etish va qonun ustuvorligini ta'minlash juda muhimdir. Agar ushbu normalar hayotga izchil tadbiiq etilmas ekan uning samarasi va undan ko'zlangan maqsadlarga erishish imkoniyati bo'lmaydi. Normalarning ijtimoiy hayotga tadbiiq etilishi esa albatta, davlatdan va uning organlaridan ushbu faoliyat uchun alohida kuch talab etadi. Bunday vazifalarni qonuniy, adolatli va ishonchli bajarishda esa ko'plab xorijiy mamlakatlar raqamli texnologiyalar keng foydalanmoqda. Ijtimoiy yordamlar, pensiya, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik, ta'lim, sog'likni saqlash sohalari shu bilan bir qatorda soliq, moliya, sud-huquq tizimlariga ham bugungi

<sup>1</sup> <https://senat.uz/controlactivity/post-576>



kunda raqamli texnologiyalar keng joriy qilinmoqda. Bugungi zamonda raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalari taraqqiyotga erishishning muhim shartlaridan biri ekanligini unutmash lozim.

Raqamli texnologiyalarning har bir soha oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishda tezkorlik, ochiqlik, aniqlik, qununiylik va ishonchlilikni ta'minlashda samarasi ancha yuqoridir. Ayniqsa, inson omili bilan bog'lik buyrokratik va sun'iy yo'sindagi boshqa to'siqlarni yengishda qulay vositadir. Raqamli texnologiyalar nafaqat davlat va jamiyat boshqaruvini takomillashtiradi qolaversa, ijtimoiy-huquqiy sohada odamlarga katta qulayliklar yaratadi. Bundan tashqari raqamli texnologiyalar ijobiy iqtisodiy o'sishiga zamin yaratadi: mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi, korrupsiyaga chek qo'yadi. Xususan, mamlakatimizda insonlar eng ko'p murojaat qiladigan sohalardan biri hisoblangan sud tizimida ham raqamlashtirish siyosatini jadal amalga oshirish, byurokratiya va korrupsiya holatlarini kamaytirish, xizmatlar ko'rsatishni tezlashtirish choralariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, bugungi kunda odil sudlovga erishish, insonning o'z qonuniy huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qila olish imkoni butun dunyo bo'ylab dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Yetakchi xalqaro tashkilotlar, jumladan, World Justice Project tahlillariga asosan, dunyoda 1,5 milliarddan ortiq inson odil sudlovga erisha olmay kelmoqda.<sup>2</sup>

Jahon tajribasi shundan dalolat bermoqdaki, sud-huquq tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish odil sudlovni amalga oshirish, tizimning shaffofligi va samaradorligini oshirishda tamal toshi hisoblanadi. Masalan, Buyuk Britaniyada ish yuritishning raqamli infrastrukturasiga o'tish dasturi (HM Courts&Tribunals Service Digital Case System) natijasida 2015-yildan beri ishlatilgan qog'oz hajmini 500 tonnaga kamaytirish, da'vo arizasini topshirish vaqtini 15 ish kunidan 10 daqiqagacha qisqartirishga erishilgan. Ekspertlar fikriga ko'ra, 2023 yilga kelib, yiliga 2 milliondan ortiq ishlar real sud majlislar zalidan tashqarida o'tkazilishi orqali 244 mln. funt tejab qolinadi. Buyuk Britaniyadagi CaseLines raqamli hujjatlar almashinuvi tizimi samarasi o'laroq, Qirollik sudida majlislar hajmi

50 foizga qisqarishiga erishilgan. Bugungi kunda Singapur sudlaridagi hujjatlar almashinuvining 84 foizi elektron texnologiyalar orqali amalga oshirilmoqda, 400 ga yaqin yuridik firmalar esa yagona ma'lumotlar bazasiga kirish imkoniga ega. Videokonferensiya aloqasi Vengriya, AQSh, Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Belgiya, Italiya, Irlandiya, Avstraliya, Birlashgan Arab Amirliklari, Singapur, Kanada kabi yetakchi davlatlar sudlarida keng ishlatilmoqda. Shuningdek, Dubay xalqaro moliyaviy markazi (DIFC) va Smart Dubai birgalikda blokcheyn texnologiyasi asosida hujjatlar almashinuvi orqali ishlaydigan sud tizimini yaratish borasida hamkorlik qilmoqda.<sup>3</sup>

Bugungi kunga kelib yurtimizda bu sohada amalga oshirilayotgan ishlar ham dunyoning yetakchi davlatlari tajribasi asosida bosqichma-bosqich keng ko'lamda amalga oshirilayotganligini qayd etish lozim. Misol uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-sentabrdagi "Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari

<sup>2</sup> <https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index/country/Uzbekistan>

<sup>3</sup> <https://strategy.uz/index.php?news=1115&lang=uz>



to'g'risida"gi Qarori ham sud tizimining samaradorligini oshirish, sudning aholi uchun ochiq va shaffofligini ta'minlash bo'yicha istiqboldagi muhim vazifalarni belgilab bergani bilan ham ahamiyatga muvofiqdir.

Qarorga ko'ra, sudlar faoliyatini raqamlashtirish jarayonida:

1. Sudlarda sud majlisi taraflarning iltimosi va raislik qiluvchining roziligi bilan audioyozuvdan foydalangan holda qayd etib boriladi hamda sud majlisi bayoni shulardan foydalangan holda shakllantirish;

2. Apellyatsiya va kassatsiya instantsiyasi sudlarida ishlar sudyalari o'rtasida avtomatik ravishda taqsimlash;

3. Sud qarorlari taraflarga onlayn tarzda, ularning iltimosi bo'yicha esa qog'oz shaklida taqdim etilish;

4. Sud ishlari davlat arxiviga elektron shaklda topshirish va qabul qilish;

Shuningdek, sudlarning axborot tizimlarini davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlari bilan integratsiya qilish kabi vazifalar shular jumlasidandir.

Hozirgi kunga kelib 30 ga yaqin davlat organi va tashkiloti, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi, Bosh vazirning tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish qabulxonasi axborot tizimlarini Oliy sudning axborot tizimiga bosqichma-bosqich integratsiya qilish ishlari amalga oshirildi. Muayyan ishni ko'rish jarayonida zarur bo'lgan ma'lumot va hujjatlarni bevosita davlat organlari va tashkilotlaridan elektron shaklda olish, sudlar tomonidan jarimalarni kamaytirish yoki ularni qo'llamaslik masalasini ko'rib chiqishda "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" va boshqa axborot tizimlari orqali fuqaroning mulkiy va ijtimoiy ahvoli haqidagi ishonchli ma'lumotlar bilan tanishish, sudlar tomonidan aliment miqdorini belgilashda tumanlardagi o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlarni axborot tizimi orqali elektron shaklda olish imkoni yaratildi. Shu bilan birgalikda, surishtiruv va dastlabki tergov jarayoni ham bosqichma-bosqich raqamlashtirilib, ushbu sohaga ham raqamli texnologiyalar kirib kelmoqda. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PQ-105-son "Ishni sudga qadar yuritishda yagona idoralararo elektron hamkorlik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu boradagi islohotlar uchun katta qadamlardan bo'ldi. Unga ko'ra, surishtiruv va dastlabki tergov organlari faoliyatini raqamlashtirish hamda ishni sudga qadar yuritish masalalari bo'yicha "Elektron surishtiruv va dastlabki tergov" yagona axborot tizimi joriy etildi. Yagona tergov axborot tizimi orqali ishni sudga qadar yuritish masalalarida elektron hujjat almashish Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va Majburiy ijro byurosi, Davlat bojxona qo'mitasi, Milliy gvardiyaning surishtiruv va tergov organlari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Yagona tergov axborot tizimining boshqa axborot tizimlari bilan integratsiyalashuvi, uning uzluksiz ishlashi, axborot xavfsizligi ta'minlanishi uchun Bosh prokuratura mas'ul organ sifatida belgilandi. Mazkur qaror bilan "Elektron surishtiruv va dastlabki tergov" yagona axborot tizimi doirasida surishtiruv va tergov organlari bilan elektron hamkorlikni amalga oshiruvchi davlat organlari hamda tashkilotlar ro'yxati tasdiqlandi. Shunga ko'ra, Yagona tergov axborot tizimi bilan davlat organlari va tashkilotlarning axborot tizimlarini o'zaro integratsiya qilish orqali jismoniy va yuridik



shaxslar haqidagi mavjud ma'lumotlar surishtiruv va tergov organlarining elektron so'rovi bo'yicha bepul asosda taqdim etilishi nazarda tutildi.

Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini kafolatlashda ularning himoyaga bo'lgan huquqlarini ta'minlashning o'rni katta hisoblanadi. Shu sababli ham bugungi kundagi sud-huquq sohasidagi yana bir muhim qadamlardan biri bu bevosita advokatura sohasini raqamlashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar hisoblanadi. Shuni alohida aytish kerakki, bugungi kunda tegishli vazirlik va idoralarning axborot tizimlari o'zaro integratsiya qilinmaganligi sababli aksariyat organlarda, jumladan, advokatura sohasida ham malakali yuridik yordam ko'rsatish hamda ma'lumotlar almashinuvida muammolar bor. Shu bois advokatura faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish orqali jismoniy va yuridik shaxslarga yuridik yordam ko'rsatishni yangi bosqichga olib chiqishga harakat qilinmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa, advokatura tizimida uchrayotgan ortiqcha byurokratiya va to'siqlarga chek qo'yishdir. Advokatlar faoliyatida sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat organlari bilan elektron hujjatlar almashinuvi yo'lga qo'yilsa, malakali yuridik yordam ko'rsatish sifati oshadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

2022-yil

30-maydagi "Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori advokatura sohasini raqamlashtirishdagi amaliy islohotlarni boshlab berdi. Qaror ijrosini ta'minlash bo'yicha shu kunlarda sohada zarur amaliy ishlar boshlangan. eng muhim o'zgarishlardan biri advokatlik litsenziyasini yagona axborot tizimi orqali rasmiylashtirish tartibi joriy etilishi bo'ldi.

Advokatlar, sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat organlari o'rtasida hujjatlar almashinuvini ta'minlovchi "Yuridik yordam" elektron tizimi joriy etilishi belgilandi. Tizimda tergovga qadar tekshiruv, tergov harakatlari yoki sud majlisi o'tkazilish vaqti va joyi to'g'risida vakolatli organ va mansabdor shaxslar tomonidan advokatga elektron xabar berish imkoniyati ham yaratiladi. O'z navbatida qarorda advokat so'rovini elektron yuborish va shu asosda yuridik yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni elektron shaklda taqdim etish amaliyoti ham yo'lga qo'yilishi va advokatlar elektron reyestri va advokatlarning shaxsiy elektron kabineti shakllantirilishi nazarda tutildi. Shaxsiy elektron kabinet orqali jismoniy va yuridik shaxslar bilan onlayn muloqot qilish, elektron raqamli imzodan foydalangan holda onlayn bitimlar tuzish va yuridik yordam ko'rsatish imkoniyati yaratildi. Shu bilan birga 2023-yil 1-fevraldan boshlab advokatning ish bo'yicha protsessda ishtirokini ta'minlashni soddalashtirish maqsadida "Elektron advokat orderi" joriy etiladi. Mazkur orderning maqomi advokatlik tuzilmalari tomonidan advokatlarga beriladigan an'anaviy shakldagi orderning maqomiga teng teng bo'lishi belgilandi.<sup>4</sup>

Albatta, yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, qonun ustuvorligini ta'minlash va inson huquq va erkinliklarini sifatli kafolatlashda raqamli texnologiyalarni joriy etish masalasi davlat siyosati darajasida ko'tarilib, ushbu sohada tizimli va izchil sa'y-harakatlar amalga oshirilmogda.

<sup>4</sup> [https://uza.uz/oz/posts/advokatura-raqamlashtirilsa-yuridik-yordam-korsatish-ostonlashadi-va-sifati-oshadi\\_401976](https://uza.uz/oz/posts/advokatura-raqamlashtirilsa-yuridik-yordam-korsatish-ostonlashadi-va-sifati-oshadi_401976)



Ammo shuni ta'kidlab aytish joizki ushbu sohada ham bir muncha kamchiliklar ham mavjud, bular esa o'z navbatida sud-huquq tizimida inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda sezilarli tasirini o'tkazmoqda.

Kelgusi istiqbolda sohaga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish masalasi ham alohida e'tiborga muolok masaladir. Soha uchun aniq yo'naltirilgan vazifalarni bajarishga ixtisoslashgan sun'iy intellekt texnologiyalarini yaratilishi va sun'iy intellekt texnologiyalarining asosi yuqori xotira va aniqlik, axborotlar almashinuvidagi tezkorligi, tezkor tahlil va inson omilidan xoli ekanligi ayniqsa, surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida tergov va boshqa tezkor tadbirlarini ochiq va shaffof o'tkazishda, ushlab turilgan fuqarolarni shaxsiga aniqlik kiritishda, shaxslarga nisbatan ehtiyot choralarini qo'llashda, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashda, ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarni huquq va erkinliklarini ta'minlashda, jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashishda o'z samarasini beradi.

Kelgusi davr mobaynida ushbu soha oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash uchun ushbu sohalarda yuqori aniqlikdagi yangi qidiruv tizimlarini yaratish yo'nalishini ishlab chiqish va aniqlash, shu jumladan elektron shakldagi materiallarni izlash va aniqlash uchun yechimlar topish, axborotni qidirish va olishda semantikadan foydalanish, mashinaviy tarjima tizimidagi yangi texnologiyalar, shuningdek, mashinaviy o'qitishning yangi algoritmlari va texnologiyalarini rivojlantirish,

2. Sud-huquq va davlat boshqaruvida keng foydalanish mumkin bo'lgan katta hajmdagi ma'lumotlar to'plamini tahlil qilish va bilimlarni to'plash bo'yicha, shu jumladan, katta hajmdagi ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va intellektual tahlil qilishning yangi usullari va algoritmlarini, katta hajmdagi ma'lumotlarni tarqatish uchun yangi usullar va dasturlar, shu bilan birga murakkab muhandislik yechimlarini bashoratli modellashtirish uchun yangi usullar va dasturiy ta'minotlar yaratish,

3. Davlat organlari faoliyatida foydalanilayotgan raqamli texnologiyalarning xatolarga chidamliligini oshirish va tizim elementlari o'rtasidagi almashinuv vaqtini qisqartirish uchun yangi yuqori darajali hisoblash va ma'lumotlarni saqlash tizimlarini yaratish, shuningdek, parallel hisoblashning yangi algoritmlarini, yangi texnologiyalar va dasturlarni, yangi aloqa texnologiyalari va o'zaro ta'sir protokollarini yaratish,

4. Tizim elementlari o'rtasidagi almashinuv vaqtini qisqartirish, yuqori samarali va ishonchli ma'lumotlarni saqlash tizimlari uchun yangi dasturlar yaratish sohasida tadqiqotlar o'tkazish;

5. Huquqbuzarliklarni oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishda foydalanish mumkin bo'lgan robototexnika komplekslari va odamlar o'zaro ta'sirining algoritmlarini ishlab chiqish, ma'lumotlar uzatish tarmoqlari infratuzilmasini, o'rnatilgan sensorlar va sensor tarmoqlarni takomillashtirish, shuningdek, "bulutli" xizmatlarini taqdim etishning turli xil modellarini amalga oshirish uchun dasturiy ta'minot yaratish.

Albatta ushbu vazifalarning amaliyotga keng tadbiriq etish orqali soha oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishda ijobiy yutuqlarga erishish mumkin bo'ladi.



Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkin. Bugungi kunga kelib insoniyat raqamli dunyo sari odimlab bormoqda. Shu sababli ham raqamlashayotgan dunyoda konstitutsiyaviy normalarni hayotga tadbiq qilish va qonuniylikni ta'minlash, ayniqsa inson huquq va erkinliklarini kafolatlash mexanizmlarida katta o'ringa ega bo'lgan sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimiga raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt texnologiyasini keng joriy qilish zaruriy masala ekanligini unutmasligimiz lozim.

## References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-sentabrdagi PQ-4818-son "Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/-4979896>
3. O'zbekiston Respubliaksi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi PQ-263-son "Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/-6039334>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PQ-105-son "Ishni sudga qadar yuritishda yagona idoralararo elektron hamkorlik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-5840465>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi PQ-357-son "2022-2023-yillarda Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari" to'g'risida qarori <https://lex.uz/docs/-6166539>
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 29.11.2021 yildagi 717-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash" haqida <https://lex.uz/docs/-5746496>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 17.02.2021 yildagi PQ-4996-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari" to'g'risida <https://lex.uz/docs/-5297046>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.08.2021 yildagi PQ-5234-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari" to'g'risida <https://lex.uz/docs/-5603319>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son " "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari" to'g'risida <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
10. <https://www.lex.uz>
11. <https://worldjusticeproject.org>
12. <https://meningkonstitutsiyam.uz>
13. <http://www.insonhuquqlari.uz>
14. <https://parliament.gov.uz>
15. <https://xdp.uz>
16. <https://adolat.uz>
17. <https://academy.uz>
18. <https://president.uz>